

QIZILQUMNING ARXEALOGIK VA TARIXIY TAHLILI

Jalilov Mirsaid Bektosh o`g`li

NavDPI tayanch doktaranti

E-mail:mirsaidjalilov70@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda mavjud bo`lgan cho`llar orasida o`ziga xos ahamiyatga ega bo`lgan, mamlakatimiz sanoatining asosiy qismi joylashgan Qizilqum cho`li xususida va uning o`rganilishi tarixi, arxealogik manbalarning mavjud ekanligi va ushbu hudduda aniqlangan qadimgi madaniyat qoldiqlarti haqida so`z boradi.

Abstract Among the deserts in our country in this articleIt is about Kyzilkum desert, which is of special importance and where the main part of our country's industry is located, and about the history of its study, the existence of archaeological resources and the remains of ancient culture found in this area.

Kalit so`zlar. Oyoqog`itma. Sho`rko`l. sizot suvlari. Titis dengizi. Urbanizatsiya. Nur, Xarqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna Isvonalar

Key words. Don't walk. Shorkol. seepage waters. Titus Sea. Urbanization. Nur, Kharqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna Iswanalar

Miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida O'rta Osiyoning dashtlik yerlarida yashayotgan aholi hayotida sodir bo`lganidek, Zarafshon vodiysi quyi qismidagi qabilalarning chorvachilik xo`jaligida ham tez suratlar bilan rivojlanish jarayoni kuzatiladi.

Zarafshon daryosining har ikkala qismida dehqonchilik uchun qulay bo`lgan yerlarda yarim ko`chmanchi chorvadorlarning bir qismi o'troqlashib, yangi-yangi dehqon jamoalari shakllana boshlaydi.

Moxondaryo, Gurdush va Gujayli o'zanlarining dashtlikka aylanib, yashash uchun nobop bo'lib qolgan havzaning aholisi hozirgi Buxoro vohasining shimoliy va shimoli-g'arbiy qismlariga tomon siljishidan[1] ancha ilgari, tadqiqotchi olimlarning ta'kidlashicha, Sarmishsoy va Bironsoy va Oyoqog'itma, SHo'rkul atrofida yashovchi ovchi va chorvador aholi ibtidoiy dehqonchilik xo'jaliklarini shakllantirib, Buxoro vohasining daryovot qismiga qarab enib borib chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklarini qaror topishida muhim rol o'ynagan.

Akademik A.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida Zarafshon daryosining o'rta qismidagi son-sanoqsiz soy etaklarida, chashmalardan hosil bo'lган sizot suvlari yoqalarida o'troq dehqon jamoalari qishloqlari paydo bo'lib, ularning atrofdagi chorvador aholi bilan bo'lган muloqoti kuchayib boradi. Bir tomondan dehqonchilik va chorvachilikning yuksalishi, ikkinchi tomondan, kasb-hunar xususan, mintaqadagi tog'-kon sanoati, qurol-yarog', asbob uskunalar yasashning rivoj topishi, uchinchidan, dehqon va chorvador aholi o'rtasida ayrbosh savdoning kengayib borishi.

Quyi Zarafshon vodiysida urbanizatsiya jarayonini kuchaytirib, qadimgi So'g'd madaniyatining shakllanishiga olib keladi[2] Qadimgi So'g'd madaniyatiga mansub urbanizatsiyalashgan dehqon va hunarmand jamoalarining milodgacha bo'lган VII-V asrlarga mansub qishloqlari avval o'rta Zarafshonda, hozirgi Samarqand shahri va uning tevarak atroflarida, chashma suvlari va soy jilg'alari bo'yida qad ko'tarib, so'ngra asta-sekin Zarafshon vodiysi bo'ylab yangi-yangi yerlar o'zlashtirila borgan.

Navoiy viloyatining Qalqonota va Konimex nohiyalarida, Buxoro viloyatining qadimgi Varaxsha yerlaridan g'arbroqda qayd etilgan bunday qishloqlarning xarobalari va mozorqo'rg'onlarga qarab fikr yuritadigan bo'lsak, milodgacha bo'lган VI-V asrlarda faqat hozirgi Buxoro vohasining shimoliy va shimoliy-g'arbiy hududlari - Konimex va Vobkentdaryo adog'idagi yerlar o'zlashtirilib, bu yerlarda o'troq dehqonchilik qishloqlari qad ko'tara boshladi[3]

Qadimgi Buxoro hududining asosiy qismi chakalakzor va qamishzor partov yerlardan iborat bo'lган. Chunki bu davrda Zarafshon suvlari vodiyning Samarqand

qismida dehqonchilik uchun mutlaqo sarf bo'lmay, uning yillik oqimi Buxoro yerlarida xalqob bo'lib yotar, hatto uning etagida – hozirgi Qorako'l va Olot nohiyalari hududida ilk o'rta asr yozma manbalarida tasvirlangan mashhur "Borgini Farox", ya'ni "Ulkan ko'l" hosil bo'lgan edi.

Buxoro vohasidagi eng qadimgi qishloqlarning paydo bo'lish jarayonini tarixchi Narshaxiy o'z asarida quyidagicha keltiradi: "Avval ular chodir va o'tovlarda turar edilar, so'ng vaqt o'tishi bilan odamlar yig'ilishib, imorat qurdilar... Hali Buxoro shahri vujudga kelmagan, lekin qishloqlardan ba'zilari paydo bo'lgan edi. Nur, Xarqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna va Isvonalar o'sha qishloqlar jumlasidandir[4] Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida keltirilgan.

Xarqonrud qishlog'i bilan bir qatorda hududda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida suvgaga yaqin daryo tarmoqlarining arnalari yoqasidan o'rindan olgan dastlabki qishloqlar xarobasi Konimex tumanidan 5 km g'arbroqda Qumrabot, Arabon-1, Arabon-2, CHordara qishloqlarining ham qadimiyligi isbotlandi. Bu yodgorliklarni jumladan, Qumrabot qishloq xarobasini sinchiklab tekshirish natijasida Buxoro vohasida, xususan uning shimolida qad ko'targan ilk qishloqlarning qachon qurila boshlagani, tarxi – imoratlarining tuzilishi, xo'jalik hayoti, ayniqsa hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan ko'p masalalarga oydinlik kiritdi.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarga mansub bu nodir yodgorlik CHordaradan janubda, Qumrabot qishlog'idan 0,5 km janubi-g'arbda joylashgan. Yodgorlikning bir qismi buzib yuborilgan. Qishloq xarobasining saqlanib qolgan qismining maydoni 45x50 metrga teng bo'lib, 9 xonali kattagina uy, hovlisi va kulolchilik ustaxonalari bor, atrofi qalin devor bilan o'ralgan mustahkam qo'rg'onidan iborat[5].

Qo'rg'on va imorat devorlari paxsadan urilgan, qalinligi 1,2-2,2 metr va 0,6 metr balandlikda saqlangan. Kulolchilik ustaxonasi alohida bo'lib, qo'rg'onning sharqiy tomonida joylashgan, unda sapol idishlar pishiriladigan diametri 1,1 metr keladigan ikki ko'rali xumdon bor. Uning yuqori ko'radi buzilib, olovxonasi ichiga qulab tushgan. Uning ichida kulolchilik charxida yasalgan ko'pdan-ko'p labi yupqa, gardishi yassi, jarangdor kuva va kuvachasimon, tog'arasimon sopol idishlar va

ularning bo'laklari qalashib yotardi[6].

Qadimgi Konimex vohasidagi o'troq dehqonlarning mozor-qo'rg'onlari qazib o'rganilganda[7], o'sha zamon dafn marosimlari to'g'risidagi ma'lumotlar va ko'plab ashayoviy dalillarga ega bo'lindi.

1996 yil 3 aprelda Konimex tumaniga o'lkashunos Dumat Mamirovning so'rovnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining hududda o'tkazgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari yuboriladi. Unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining arxeolog olimlarining tadqiqotlariga ko'ra Konimex tumanida miloddan avvalgi VI - V asrdan to milodning VI-VIII asrlariga doir 41 ta yodgorlik aniqlangan. Ulardan ikki guruhi mozor qo'rg'onlardir. Ulardan biri SHodibek mozor qo'rg'onidir. U SHodibek qishlog'idan 400 metr g'arbda joylashgan.

Mozor qo'rg'on miloddan avvalgi VI-II asrlarga tegishli bo'lib, qabrsoni 29 tani tashkil qilgan. Ularda 7 tasi ochib o'rganilgan. O'rganilish natijalariga ko'ra: ular aylana shaklda, diametri 7-18 metr, 0,3-1,5 metr balandlikda bo'lган. Qabr handaqlari, markazidan qaralganda (2-2, 20x 0,6-0,9 metr) oval shaklda joylashgan, chuqurligi 0,4-0,6 metr qabrular janubi-g'arbdan, shimoli-sharq tomonga nur shaklida joylashtirilgan. Mayyitlar chalqancha yotgan holda boshi shimoli-sharq tomonga qaratilgan, qo'llari tana tomonga cho'zilgan, oyoqlari uzatilgan holda ko'milgan. Ba'zi qabrlarda ko'milganlarning bel qismida bir tomoni teshilgan qayroqtoshlar topilgan.

Urbanizatsiyalashgan dehqonchilik qishloqlari dastavval Buxoro vohasining shimoliy va shimoliy-g'arbiy qismlarida – Vobkentdaryo va Konimex (Navoiy viloyatining Qalqonota va Konimex hududlari) mintaqalarida paydo bo'lgan. Qazishmalar olib borish jarayonida o'rganilayotgan qabrlarning aksariyati o'sha zamonlarda qazib ochilib, dafn ashayolari o'g'rilib ketilgan bo'lsada, tadqiqot ishlari natijasiga ko'ra, ushbu qishloqlarning yoshi miloddan avvalgi VI-V asrlarga borib taqalishini isbotlab berildi.

Mintaqada o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi Konimex hududi qadimgi So'g'd madaniyatiga mansub urbanizatsiyalashgan dehqon-hunarmand

jamoalarining makoni ekanligi, bu maskan miloddan avvalgi VI-V asrlarda asos solinganligi[8] va bu yerda hayot milodiy VI-VII asrlargacha davom etgani aniqlangan. Hudud aholisi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Shunday qilib, Buxoro vohasida, xususan uning shimoliy va shimoliy-g'arbiy qismlarida ilk shahar tipidagi urbanizatsiyalashgan qishloqlar milodgacha bo'lган VI-V asrlardayoq qad ko'tara boshlagan.

Zamonboblik qadimgi xonaki chorvador dehqonlarning yarim yerto'la hamda yengil cho'pkori chaylalardan tubdan farq qiladigan yirik xom g'isht va paxsadan bino qilingan, atrofi devor bilan o'ralgan, hunarmandchilik ancha-muncha rivoj topgan istehkomli qishloqlar edi. Ular, shubhasiz vohada shahar madaniyati yuksalib, shaharlarning qad ko'tarishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qilgan[9].

Miloddan avvalgi III-I ming yilliklarga kelib O'rta Osiyoda tub iqtisodiy o'zgarishlar va ishlab chiqarishdagi qator kashfiyotlar qilinib, hunarmandchilik, birinchi galda, metalga ishlov berishni rivojlanishi asosida mis, bronza va temirdan turli mehnat qurollari va buyumlarni yasalishi, jumladan, mahsulot ayrboshlash va savdoni o'sishi kabi yuqori dinamikadagi katta o'zgarishlarni sodir bo'lishi - dehqon va chorvador aholi o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni o'sishiga, mintaqalarda shaharlar va shahar tipidagi qo'rg'onlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga zamin yaratdi.

Chordara istehkomi qadimgi davrdan XV-XVI asrlargacha harbiy to'qnashuvlar paytida qal'a-qo'rg'on, tinch vaqtarda harbiy-ma'muriy hamda savdo-hunarmandchilik markazi vazifasini bajargan. Miloddan oldingi VIII asrning oxiri – VII asrga kelib O'rta Osiyoning janubidagi qishloqlar rivojlanishida jadallik bilan o'zgarishlar boshlanib Baqtriya va Sug'diyona hududlarida shaharsozlik belgilarini (mustahkam devorlar, saroylar, burjlar, xandaqlar, devorlardagi o'q otish yo'lklari va boshq.) aks ettiruvchi manzilgohlar paydo bo'ladi. Ilk temir davriga oid bunday manzilgohlarning soni Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyonada 20 tadan ziyodroqni tashkil etadi.

Mintaqadagi asosiy manzilgohlar esa (maydoni 5 hektardan kam) qishloq qo'rg'onlari, uncha katta bo'lмаган alohida qal'alar va dehqonchilik qishloqlaridan

iborat. Shaharlar turiga kiritish mumkin bo'lgan, kattagina qo'rg'onli mustahkamlangan manzilgohlar ayrim qadimgi dehqonchilik viloyatlarida (Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari va boshq.) bitta yoki ikkitadan ko'p bo'limgan[10]. Shu tariqa So'g'diyona mintaqasida Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Uzunqir kabi shaharlar bilan bir qatorda Chordara kabi shahar tipidagi manzilgohlar shakllandi.

Ilk temir davri O'rta Osiyoning janubida xususan, Sug'diyonada, alohida hududiy tartib guruhida bo'lib, markaziy vazifani bajargan bir nechta manzilgohlar turlari mavjud edi. Bularga birinchidan, maydoni 5 gektardan 15 gektargacha bo'lib, tuman-voha markazi vazifasini bajaruvchi Daratepa, Konimex, Chordara kabilardir. Ikkinchidan, maydoni 20 gektardan 80 gektargacha bo'lgan viloyat markazlari vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan O'zunqir, yerqo'rg'on, Xo'ja Bo'ston kabilalar hamda bir necha viloyatlar markazi vazifasini bajaruvchi va maydoni 100 gektardan ziyod bo'lgan Afrosiyob, Buxoro kabilalar shular jumlasidandir[11]

Bu fikrlardan anglashiladiki, Konimex tumanida joylashgan Chordara manzilgohi So'g'diyona o'lkasining muhim ma'muriy markazlaridan biri hisoblangan. Chordara – to'rt eshikli xona (ikki eshigi shimolga, ikkitasi janubga qaragan) yoki bolaxona chordara tushunilgan. Shu bilan bir qatorda podsholik chegarasidagi minora-qorovulkxona ham chordara deyiladi.

Professor M.Masson chordara so'zi chaldivor degan ma'noni anglatadi deydi. Demak chaldivar (chordevor-to'rt devor) so'zi fonetik jihatdan o'zgarib chordara shaklini olgan[12] Bizningcha, Chordara - podsholik chegarasidagi minorali qorovulkxona, harbiy istehkom ma'nosida qo'llanilgan. Chordara istehkomini hozirgacha bo'lgan tadqiqotlar natijasida belgilari unchalik to'liq bo'limganligi uchun ham O'rta Osiyoning dastlabki shaharlar safiga kiritib bo'lmaseda, istehkom qadimgi davrdan XV-XVI asrlargacha harbiy to'qnashuvlar paytida qal'a-qo'rg'on vazifasini, tinch vaqtarda harbiy-ma'muriy markaz, hamda savdo-hunarmandchilik markazi sifatida qad rostlab turgan.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. – Т.: Фан, 1991. -Б.30
- 2, Навоий –ўтмиши қадим, келажаги нурли диёр: китоб-альбом //тузувчи муаллифлар Р.Сулаймонов, Р.Ҳайдаров ва бошқалар – Т.: Маънавият, 2012. – Б. 31.
3. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. Т.: Фан. 1991 йил.-Б.31-32
4. Наршахий. Бухоро тарихи.Т.: Камалак.1991 йил.-Б.6
5. Мамыров Д. Кенимех таңы. Дәйекті деректер мен қисқача әңимілер. - Кенимех.: 1995, -Б.13
6. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. Т.: Фан. 1991 йил.-Б.32-33
7. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. Т.: Фан. 1991 йил.-Б.32-33
8. Муҳаммаджонов А. Тарих фалсафаси-маънавият кўзгуси. Т.: Ўзбекистон, 2015 йил.-Б.99
9. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. Т.: Фан. 1991 йил.-Б.34
10. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи.-Т.:2012 йил.-Б.60-61
11. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи.-Т.:2012 йил.-Б.36-37
12. Қораев С. Географик номлар маъноси. –Т.: Ўзбекистон,-Б.150